



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 9-iyun

VII-26-63-5-74-K/26

Nurota tumani

Tumandagi yoshlarning yozgi ta'til davrini mazmunli, samarali va xavfsiz tashkil etish, ularning bo'sh vaqtlarini foydali mashg'ulotlarga jalb qilish, hamda iqtidor va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan "Dolzarb 90 kun" chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi rahbarining 2026-yil 23-maydagi 02-PA 1/1-2736-sonli topshiriq xati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida, tumanda istiqomat qilayotgan yoshlarning yozgi ta'til davrida bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, madaniyat, san'at, kitobxonlik, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, tadbirkorlik va kasb-hunar yo'nalishlariga keng jalb etish, uyushmagan yoshlar bilan manzilli ishlash tizimini takomillashtirish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik, giyohvandlik, diniy ekstremizm va boshqa salbiy holatlarning oldini olish, ularni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarning intellektual, ma'naviy va jismoniy salohiyatini yanada rivojlantirish, shuningdek, Davlat rahbarining yoshlar uchun yozgi ta'til davrida "Dolzarb 90 kun" dasturini yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha belgilab bergan vazifalaridan kelib chiqib, tumanda 28 ta mahalla, 53 ta maktab, 1 ta "Kelajak markazi" hamda madaniyat va sport muassasalarida yoshlarni ommaviy tadbirlarga keng jalb etish, ularning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish belgilangan.

Nurota tuman yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i F.Sa'dullayevning bergan axboroti, bildirilgan fikr mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari

bo'yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 4-iyundagi DKQ 03-03/50-26-sonli qaroriga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Nurota tuman yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i F.Sa'dullayevningning yoshlarning yozgi ta'til davrini mazmunli tashkil etishga qaratilgan "Dolzarb 90 kun" chora-tadbirlar dasturi yuzasidan bergan axboroti hamda 2026-yilning 4-iyundagi 05-05/1661-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi mahallalar va ta'lim muassasalaridagi yoshlarni yozgi ta'tilini mazmunli va samarali o'tkazishga qaratilgan "Dolzarb 90 kun" amaliy tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq ma'qullansin.

3. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosariga:

"Dolzarb 90 kun" dasturining ijrosini muvofiqlashtirish;

barcha mas'ul tashkilotlar faoliyatini tizimli tashkil etish;

haftalik monitoring va tahlillarni o'tkazish;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish vazifalari yuklansin.

4. Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (K.Shamiyeva), Yoshlar Ishlari bo'limi (F.Sa'dullayev), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (A.Shokirov), tuman Madaniyat bo'limi (Lavozimiga ko'ra) va tuman sport maktabi (Sh.Toshpo'latov)ga:

53 ta maktab, 1 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 1 ta "Kelajak markazi", 2 ta texnikum hamda 28 ta mahallada "Yozgi kasblar" to'garaklarni yuqori saviyada tashkil etish;

xorijiy til bo'yicha bepul o'quv kurslari yo'lga qo'yish;

sun'iy intellekt, dasturlash, robototexnika, mobilografiya, veb-dizayn, tikuvchilik, sartaroshlik, oshpazlik va kulolchilik yo'nalishlarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

"Ibrat" debat turniri, "Zakovat" intellektual o'yini maktab ligasi, "Yosh kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi", "Quvnoqlar va zukkolar", "Zamonaviy kasblar" hamda "Ezgu o'tmishdan so'z" tanlovlari muntazam tashkil etish vazifalari topshirilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov)ga tumanda "Dolzarb 90 kun" doirasida olib borilayotgan ishlarni, ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borish tavsiya etilsin.

6.Ushbu qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (Lavozimiga ko'ra)ga, qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Normurodov) zimmalariga yuklansin.

7.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



**MIRZAYEV
JAMOLIDDIN
UMIRZOQOVICH**

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2026-yil 9-iyundagi
VII-26-63-5-74-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Mahallalar va ta'lim muassasalaridagi yoshlarni yozgi ta'tilini mazmunli va samarali o'tkazishga
qaratilgan "Dolzarb 90 kun" amaliy tadbirlar
DASTURI**

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I.Yoshlarni kasbga o'rgatish va tadbirkorlikka yo'naltirish				
1.	Tumandagi Kelajak markazi tomonidan "Yozgi kasblar" to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish. Bunda, - dasturlar va web-dizayn; -robototexnika; -tikuvchilik; -sartaroshlik; -oshpazlik; -kulolchilik kasblari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish.	Iyun-avgust	Mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman kelajak markazi
2.	Tumandagi "champion tadbirkorlar" bilan muloqot o'rnatish, ularda mavjud vakansiya va ishchilarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, ehtiyojga qarab yirik tadbirkorlik sub'ektlarida yoshlarni marketpleys, kuryerlik, servis, savdo va sanoat kabi yo'nalishlarda ishga yo'naltirish.	Iyun-avgust	Homiylik mablag'lari	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tumandagi 1-2-sonli texnikumlar
II.Yoshlar o'rtasida o'zaro ishonch muhitini va jamoaviy birdamlik ruhini shakllantirish				
3.	Milliy jamoa o'yinlarini tumandagi amfiteatrda yirik o'lchamli monitor orqali jamoaviy tomosha	Iyun	Mablag' talab etilmaydi	Tuman hokimligi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi,

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	qilish va vatanparvarlik ruhidagi konsert dasturlarini tashkil etish.			Tuman Madaniyat bo'limi
4.	Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida “Yoshlar tashabbuslari marafoni” ni tashkil etish.	Iyun	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi,
5.	30-iyun Yoshlar kuni munosabati bilan Rahbar va yoshlar uchrashuvini o'tkazish va mahalliy hokimlik tomonidan bayram konserti tashkil etish	Iyun	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman hokimligi, Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi
III. Yoshlarning iqtidorni namoyish etish, bilimlarini mustahkamlash hamda kitob o'qishni qo'llab-quvvatlash				
6.	Milliy sport o'yinlari musobaqalarini (<i>kurash, arqon tortish, tosh ko'tarish, chillak</i>) o'tkazish	Iyun-avgust	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman Sport maktab
7.	Mahalla kubogi bo'yicha yoshlar o'rtasida futbol sport turnirini o'tkazish	Iyun	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Sport maktab

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
8.	Mahalla kubogi bo'yicha yoshlar o'rtasida voleybol sport turnirini o'tkazish	Iyul	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Sport maktab
9.	Mahalla kubogi bo'yicha yoshlar o'rtasida stol tennisi bo'yicha sport turnirini o'tkazish	Avgust	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Sport maktab
10.	Sport marafoni (ommaviy sport tadbirlari, yugurish marafonlari)ni tashkil etish.	May-avgust	Mablag' talab etilmaydi	Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman Sport maktab
11.	“Zakovat” intellektual o'yini maktab ligasini tashkil etish.	Iyul	Homiylik mablag'lari	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
12.	Tumandagi umumta'lim maktablarida “Ibrat” debat turnirini tashkil etish.	Iyun	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi,	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi
13.	Tumandagi umumta'lim maktablarida “Qizlar akademiyasi” , “Mutolaa” marafoni, “TopCoach” ,	Iyun-avgust	Mablag' talab etilmaydi	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi,

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	“Ibrat Debate”, “Spaking Club”, “Ustoz AI” loyihalarini ommalashtirish.			Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi
14.	“Eng yaxshi kitobxon o'quvchi” tanlovini o'tkazish.	Iyun	Mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
15.	Yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazadigan badiiy filmlar namoyish etish.	Iyun-avgust	Homiylik mablag'lari	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi
16.	“Yoshlar oqshomi” ko'ngilochar konsert tashkil etish	Iyun-avgust	Homiylik mablag'lari	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi
17.	Yoshlar o'rtasida “Qishlog'im manzarasi” rasm chizish bo'yicha ijodiy tanlovlar o'tkazish.	Iyul	Homiylik mablag'lari	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Navoiy ixtisoslashgan san'at maktab-internati
18.	Tumandagi tarixiy qadamjo va obidalarga sayohatlar tashkil etish.	Iyun-avgust	Homiylik mablag'lari	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi
19.	Mahallaning faxriy insonlari bilan uchrashuvlar tashkil etish (<i>mehnat faxriylari, ziyolilar</i>)	Iyul-avgust	Mablag' talab etilmaydi.	Tuman Nuroniyalar jamg'armasi tuman bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
20.	Yoshlarda tabiatga mehr uyg'otish maqsadida “Men tabiat shaydosi” rukni ostida tabiat manzaralariga piyoda ekskursiyalar tashkil etish	Avgust	Mablag' talab etilmaydi.	Tuman Mahallalar uyushmasi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi
21.	Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha ota-onalar va pedagoglar uchrashuvini tashkil etish.	Avgust	Mablag' talab etilmaydi.	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
22.	“Yoz o'tmoqda soz” shiori ostida insholar tanlovi hamda musoboqalar o'tkazish.	Iyun-avgust	Homiylik mablag'lari	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi
23.	Kitobxonlik uchrashuvlari, yoshlar ishtirokida buyuk adiblar va mutaffakkirlar asarlari bilan tanishish orqali “Yosh Jadidlar” – ma'rifat sari dadil qadam! loyihasini o'tkazish.	Iyul	Yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi
24.	Yoshlar o'rtasida musiqa, raqs bo'yicha “Talent shou” loyihasini tashkil etish.	Iyul	Yoshlar siyosatini qo'llab quvvatlash jamg'armasi, mahalliy hokimlik budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi, Tuman Madaniyat bo'limi, Tuman 5-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi
25.	“Tabiatni asraylik” ekologik ploting aksiyasini o'tkazish.	Iyun	Mablag' talab etilmaydi.	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
				Tuman ekologiya va iqlim o'zgarishi bo'limi, Tuman Yoshlar ishlar bo'limi,